

## SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI VA O‘ZBEKISTON

Dilrabo Jabborova Tog'oy qizi

Buxoro viloyat Kogon tuman 10-maktab Tarix fani oqituvchisi. Buxdu  
Tarix (yonalishlar va faoliyat turlari boyicha) mutaxassisligi II bosqich magistranti  
d.t.jabborova@buxdu.uz

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Shanxay hamkorlik tashkilotining faoliyati haqida ma'lumotlar, Shanxay hamkorlik tashkiloti va O‘zbekistonning aloqalari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shanxay hamkorlik tashkiloti, barqaror, O‘zbekiston, "Shanxay beshligi", chegaradosh, uchrashuv, bitim, shartnoma,

Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) — mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti. Xitoyning Shanxay shahrida 6 mamlakat — Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekiston davlat rahbarlari uchrashuvida tuzilgan (15-iyun 2001-yil). SHHTning vujudga kelish tarixi „Shanxay beshligi“ deb atalgan uyushma faoliyati bilan bog‘liqdir. Dastlab Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston davlatlari rahbarlari („Shanxay beshligi“) uchrashuvi bo‘lib o‘tgan. Unda chegaradosh mamlakatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash (1996) va qo‘shma chegarada qurolli kuchlar va qurol yarog‘larni qisqartirish (1997) to‘g‘risida 2 ta bitim imzolangan edi. 1998-yildan „beshlik“ mamlakatlarning o‘zaro hamkorligi sobiq Sovet Ittifoqi — Xitoy chegarasi bo‘ylab harbiy siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish masalalaridan mintaqaviy xavfsizlik va ko‘p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni ta‘minlash choralariga o‘tishga qaratildi. SHHTning Dushanbe (2000) sammitida O‘zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida qatnashdi.<sup>1</sup> Ana shu sammitda „beshlik“ negizida ko‘p tarmoqli tashkilot tuzish to‘g‘risida taklif ilgari surildi. SHHT ta‘sischilaridan biri sifatida ishtirok etish haqidagi qarorni O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy-siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda qabul qildi. Shanxay sammitida (2001-yil iyun) yangi tashkilotning maqsad va prinsiplarini e‘lon qilgan Deklaratsiya, shuningdek, Terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiya qabul qilindi. Tashkilotning Sankt-Peterburgda bo‘lgan 2-sammitida (2002-yil iyun) ustav hujjati — SHHT<sup>2</sup>Xartiyasiga imzo chekildi. SHHT ning oliy organi Davlat boshliqlari kengashidir. Tashkilot strukturasi Hukumat boshliqlari (bosh vazirlar) kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Tarmoq vazirliklari va idoralari rahbarlari kengashi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashi va doimiy ishlovchi Kotibiyat (Pekin

<sup>1</sup> 2022-yilda Samarqand shahrida SHHTning navbatdagi sammitini o‘tkazishga tayyorgarlik ishlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi“ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.09.2019

<sup>2</sup> Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi deklaratsiyasi, Shanxay hamkorlik tashkiloti .Elektron resur. .

shahrida joylashgan) hamda Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATT; Toshkent shahrida joylashgan)dan iborat.

Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi 1-yanvar 2004-yildan faoliyat ko'rsata boshladi. Mazkur tuzilma zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orkali terrorchilikning oldini olish vazifasi yuklangan. Shu maqsadda tuzilma tarkibida kengash va ijroqo'm faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kengashga 6 davlat maxsus xizmatlari rahbarlarining vakillari kiritilgan. Ijroqo'mda esa o'zaro tasdiqlangan lavozim o'rinlariga muvofiq SHHTga a'zo davlatlardan vakillar ishlaydi. SHHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining 2004-yil 17-iyunda Toshkentda bo'lgan majlisida Tashkilotning shakllanish davri yakunlanganligi qayd etildi. Majlis yakunlari bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi, SHHTning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doyr hujjatlar imzolandi. O'zbekiston Respublikasining Tashkilotga a'zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining tegishli milliy mahkamalarning yangi taxdid va xurujlarga qarshi turishdagi hamkorligini mustahkamlash maqsadiga qaratilgan doimiy uchrashuvlarini o'tkazib turish haqidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlandi. SHHT a'zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir. Iqtisodiy hamkorlik borasida oldinda transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish, suv energetika zaxiralaridan unumli foydalanish, ekologiyaga oid va boshqa masalalar bor.

Shu o'rinda Shanxay hamkorlik tashkiloti va O'zbekiston masalalari to'xtalib o'tadigan bo'lsak, O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining sammiti bo'lib o'tdi. 2022- yilning 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining 22-majlisi tadbirlari bo'lib o'tdi. Ushbu ma'lumotga ko'ra unda, SHHTga a'zo mamlakatlar – Pokiston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Hindiston Respublikasi, shuningdek, tashkilot huzuridagi kuzatuvchi davlatlar – Belarus Respublikasi, Mongoliya va Eron Islom Respublikasi yetakchilari ishtirok etdi. Faxriy mehmon sifatida Turkiye Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Turkmaniston va Armaniston Respublikasi, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari taklif etilgan. Qayd etilishicha, Samarqand sammitining kun tartibiga muvofiq ko'p tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari, SHHTni rivojlantirishning amaliy jihatlari va ustuvor vazifalari ko'rib chiqiladi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashiladi.<sup>3</sup>

Yakunda tashkilot faoliyatini kengaytirish va ustuvor sohalardagi mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan salmoqli hujjatlar to'plamining imzolandi. O'zbekiston

<sup>3</sup> Shanxay hamkorlik tashkilotining besh yilligi deklaratsiyasi, Shanxay, 2006-yil, 15-iyun.



Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatining ta'kidlashicha, bo'lajak majlis SHHT yetakchilarining 2020-yilda koronavirus pandemiyasi boshlanganidan so'ng o'tgan oxirgi uch yilda birinchi yuzma-yuz uchrashuvi bo'ladi. Shuningdek, sammit O'zbekiston Respublikasining SHHTdagi raisligiga yakun yasaydi. O'tgan davrda 80 dan ortiq yirik tadbir o'tkazilgan.

Shubhasiz, Samarqand sammitining asosiy maqsadlaridan biri SHHT oilasini yanada kengaytirish masalasidir. Davlat rahbarlari kengashi doirasida SHHTga a'zolik maqomini olish uchun Eron Islom Respublikasining majburiyatlari to'g'risidagi memorandum imzolanishi kutilyapti. Bu o'tgan yili Eronni to'laqonli a'zo sifatida qabul qilish tartibini boshlash to'g'risidagi qarorni amalga oshirishda muhim bosqich bo'ladi. Bundan tashqari, SHHTning kuzatuvchi va muloqot bo'yicha sherik davlatlari a'zolicini kengaytirish to'g'risida qaror qabul qilindi.<sup>4</sup> Sammitda SHHT va qator xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'yicha hujjatlar imzolanishi ko'zda tutilgan. Yana bir qabul qilishga tayyorlanayotgan muhim hujjat bu – Shanxay hamkorlik tashkiloti a'zo davlatlari o'rtasida uzoq muddatli yaxshi qo'shniçilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi Shartnomani 2023-2027 yillarda amalga oshirish bo'yicha Keng qamrovli rejadir. Ushbu strategik ahamiyatga ega hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va SHHTga a'zo barcha davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan.<sup>5</sup>

Reja loyihasi tashkilot doirasida barcha sohalar bo'yicha amalga oshirilayotgan hamkorlik yo'nalishlarini jalb qilgan va hozirgi kunda 120 ga yaqin tadbirlarni o'z ichiga olgan. Ayniqsa, asosiy urg'u savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga karatilgan. Masalan, investitsiyalar, energetika, transport, logistika, sanoat kooperatsiyasi, axborot va telekommunikatsiyalar, qishloq xo'jaligi, bojxona va boshqa sohalaridagi sheriklikni yanada mustahkamlash bo'yicha aniq tadbirlar va ularning bajarilishiga mas'ul idoralar belgilangan. Mazkur shartnomani o'z ahamiyatiga ko'ra SHHT Xartiyasi bilan solishtirish mumkin. Agar Xartiya tashkilotning "ruhi", uning kompassi bo'lsa, Shartnoma SHHTning "vijdoni" va xar bir a'zo davlatning o'z xissasini qo'shish majburiyatidir. Bu hujjat tashkilotga tanlangan yo'lidan adashmaslik imkoniyatini beradigan "kompass"ning to'g'ri, ritmik va barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro maydonda odil, qat'iy va mustaqil siyosat yuritib kelayotgan O'zbekiston jug'rofiy jihatdan ham, siyosiy jihatdan ham Markaziy Osiyoning o'zagini tashkil etadi, hududda xavfsizlik va tarqqiyotning asosiy tayanchi hisoblanadi. Shuning uchun ham SHHTning faoliyatini takomillashtirishda O'zbekistonning o'rni beqiyosdir.

<sup>4</sup>Dzhusaev.K.D. bilan .Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari. 2006-yil ,yanvar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.Narzulla Jo‘rayev, Akbar Zamonov.O‘rta ta‘lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,Toshkent – 2018
- 2.Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi deklaratsiyats / Shanxay hamkorlik tashkiloti [Elektron resurs].
3. Shanxay hamkorlik tashkilotining besh yilligi deklaratsiyatssi, Shanxay, 2006 yil 15 iyun// <http://www.sectsco.org/> (iyun 2006)
- 4.Dzhusaev K.D. bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlik istiqbollari PRC// <http://www.freenet.kg/jornal/n4/JRNAL407.htm> (2006 yil yanvar)
5. Markaziy Osiyoda inson taraqqiyoti bo‘yicha hisobot / oldinga to‘siqlarsiz: inson sohasida mintaqaviy hamkorlik
- 6.religions.uz